
“JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT” MAVZUIDA MAKTAB O’QITUVCHILARI BILAN OCHIQ MULOQOT TASHKIL ETILDI.

“Zarkent” MFYdagi 12-umumta’lim maktabida o’quvchilar ishtirokida “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida tadbir bo’lib o’tdi. Unda Din ishlar bo’yicha qo’mitaning Toshloq tumani bo’yicha bosh mutaxassisi T.Abdullayev hamda tuman Kengashi deputati T.Solievlar ma’ruza qildi.

O’zaro suhbat tarzida o’tkazilgan tadbirda so’z olganlar terrorizm va ekstremizm va radikalizmning yoshlar ongiga salbiy ta’siri, tadbirda yoshlarning odob-ahloqlari ularda vatanparvarlik tuyg’usini yanada kuchaytirish, xozirgi kundagi ijtimoiy tarmoqlardagi turli hil chaqiruvlarga va buzg’unchiliklarga qo’shilmaslik kerakligini aytib o’tdilar.

Shu bilan birga tadbirda o’quvchi-qizlarning odob-ahloqi, ularning o’zbekona kiyinish madaniyati, ularni buzg’unchi yot g’oyalar ta’siridan asrash, milliy, diniy an’analar, urf-odatlar hamda qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish masalalarida fikr yuritildi. Shuningdek, tinch hayotga rahna solayotgan ekstremizm va terrorizm kabi illatlarga sabab bo’layotgan omillar misollar orqali aytib o’tildi. Tadbir yakunida o’quvchi yoshlarga “Tinchlik qadri” nomli film namoyish etildi.

2023-10-20 16:22:30